



## XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda) (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-dekabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **14,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish  
 ■ O‘rmon xo‘jaligi  
 ■ Baliqchilik xo‘jaligi




*Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta‘rifi*

## Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,6** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 5 605 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,6 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 19,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,7 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 33,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3%) o'sishi kuzatildi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 96,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,4 %) tashkil etdi.

## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




### Mikrofirmalar



### Kichik korxonalar



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida




2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 497 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 4,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 66,7 %), fuqarolik obyektlarini qurish 32,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 11,1 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 92,1 % ni (jami qurilishdagi ulushi 27,2 %) tashkil etdi.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



### Mikrofirmalar



### Kichik korxonalar




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 12 344 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,5 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 21,9 % ga (jami savdodagi ulushi 72,5 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 22,1 % ga (jami savdodagi ulushi 19,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 29,6 % ga (jami savdodagi ulushi 8,1 %) o'sishidir.





## Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta'rifi

## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni






## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



### Mikrofirmalar



### Kichik korxonalar



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 016 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 12,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 57,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,2 %) o'sishidir.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**  
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 5 949 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 403 taga yoki 30,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 226 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 991 taga yoki 23,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 899 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 688 taga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 20 708 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 365 taga yoki 19,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 767 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 028 taga yoki 18,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 230 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 608 taga kamayganligini ko'rish mumkin.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 254 tani tashkil etib, ulardan 246 tasi yoki 96,9 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 9 taga yoki 3,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida viloyatimizda 21 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>246</b>	<b>159</b>	<b>87</b>
<b>G'uzor</b>	<b>13</b>	<b>10</b>	<b>3</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>17</b>	<b>12</b>	<b>5</b>
<b>Qamashi</b>	<b>14</b>	<b>10</b>	<b>4</b>
<b>Qarshi</b>	<b>17</b>	<b>10</b>	<b>7</b>
<b>Koson</b>	<b>24</b>	<b>13</b>	<b>11</b>
<b>Kitob</b>	<b>19</b>	<b>11</b>	<b>8</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>9</b>	<b>5</b>	<b>4</b>
<b>Muborak</b>	<b>12</b>	<b>6</b>	<b>6</b>
<b>Nishon</b>	<b>17</b>	<b>13</b>	<b>4</b>
<b>Kasbi</b>	<b>7</b>	<b>2</b>	<b>5</b>
<b>Ko'kdala</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>1</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>10</b>	<b>8</b>	<b>2</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>5</b>	<b>3</b>	<b>2</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>18</b>	<b>10</b>	<b>8</b>
<b>Qarshi sh.</b>	<b>53</b>	<b>40</b>	<b>13</b>
<b>Shahrisabz sh.</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Qarshi shahrida 53 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 21,5 %), Koson 24 ta (9,8 %), Kitob 19 ta (7,7 %), Yakkabog' 18 ta (7,3 %), Nishon 17 ta (6,9 %), Dehqonobod 17 ta (6,9 %), Qarshi 17 ta (6,9 %) va Qamashi tumanlarida 14 ta (5,7 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan 44 323 ta korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (18,7 %), Koson (7,8 %), Kitob (7,3 %), Qarshi (7,1 %), Yakkabog' (7,1 %), Qamashi (6,8 %), Chiroqchi (5,6 %), Shahrisabz shahri (5,4 %), G'uzor (5,3 %), Shahrisabz (4,8 %), Dehqonobod (4,7 %), Kasbi (4,6 %), Nishon (4,5 %), Mirishkor (4,1 %), Muborak (3,2 %) va Ko'kdala (3,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022 yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan 8 869 ta korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Qarshi shahrida (14,8 %), Yakkabog' (8,0 %), Koson (7,5 %), Kitob (7,4 %), Qamashi (6,9 %), G'uzor (6,3 %), Qarshi (6,3 %), Shahrisabz (6,1 %), Shahrisabz shahri (5,3 %), Kasbi (5,3 %), Dehqonobod (5,2 %), Chiroqchi (5,2 %), Mirishkor (4,7 %), Nishon (4,4 %), Ko'kdala (3,7 %) va Muborak (2,9 %) tumanlari ulushiga tegishli.



*Korxonalar va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy ta'rifi*


## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 19 767 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahrida (22,5 %), Koson (10,5 %), Qamashi (8,5 %), Yakkabog' (8,2 %), Qarshi (6,2 %), Kasbi (5,7 %), Mirishkor (5,6 %), Chiroqchi (5,5 %), Nishon (4,9 %), Kitob (4,8 %), G'uzor (4,0 %), Muborak (3,8 %), Shahrisabz shahri (3,6 %), Shahrisabz (2,8 %), Ko'kdala (2,1 %) va Dehqonobod (1,5 %) tumanlari hissalariga tegishli.



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.